

TURKIY TILLAR REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK TADQIQI

(Qozoq tilidagi reklama matnlari misolida)

Yunusova Shaxnoza

Nizomiy nomidagi TDPU

dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada qozoq tilida reklama matnlarining yaratilishidagi o‘ziga xos lingvistik xususiyat yoritilgan. Qozoq tilidagi reklama matnlarining ayrim ilmiy-nazariy masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: reklama, reklama tili, reklama matni, til birliklari, sodda gap, atov gap.

Turkiy tillardan biri bo‘lgan qozoq tilida ham dastlabki reklama matnlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Mahalliy bozorlarda savdogarlarning o‘z mahsulotini maqtab mijoz chaqirishlari sharqona bozorga xos xususiyatdir. Sof iqtisodiy maqsadlar bilan qozoq tilidagi reklama matnlari XX asrning 90-yillardidan paydo bo‘la boshladi. XX asr oxiridan boshlab tilni qo‘llashning yangidan yangi sohalari paydo bo‘ldi, xususan, reklama faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi, uning matnini yaratish bilan bog‘liq lingvistik muammolar kun tartibiga chiqdi. Reklama texnologiyalarining takomillashuvi zamonaviy reklama matnlarida qo‘llanuvchi leksika hajmining ortishiga, tilning yangi vazifalari shakllanishiga xizmat qildi. Bularning hammasi reklama matnlarida til birliklarining qo‘llanishiga jiddiy e’tibor qaratilishini talab qiladi. Sanalgan jihatlar qozoq tilida yaratilgan reklama matnlarida ham o‘z aksini topdi.

Qozoq tili materiallari asosida yozilgan. G’.Soltanbekovaning Qazaq jarnamalarы: tildik sipatы jene ықпал etu қызмети [Soltanbekova G’.Ә. 1:138] (“Qozoq reklamalari: til tabiatи va ularning ta’siri”) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida 1996-2001 yillar davomida qozoq davriy nashrlari, radio va televideenie dasturlari, tashqi reklamadan to‘plangan reklama matnlari tahlil qilingan. Ishda qozoq reklamasining ta’sir etish dorasi, noverbal reklama vositalarining milliy madaniyatga mosligi, reklama matnlaridagi variantli leksik birliklar, reklama matnlarida adabiy tildagi atamalardan foydalanish va boshqa masalalar muhokama qilinadi.

G.A. Soltanbekova o‘z tadqiqotida qozoq reklamasi haqida: “Hozirgi jamiyatda bozor munosabatlariga o‘tayotgan bir paytda reklamaning o‘rni va xizmati beqiyos. Chunki reklama bozor munosabatlarining ajralmas qismi, bozor jamiyatining atributi. Demak, bozor iqtisodiyoti rivojiga reklamaning ta’siri beqiyosdir. Hozirgi jamiyatda qozoq tilidagi reklama tili endigina shakllana boshladi. Qozoq reklamalari

barcha axborot manbalarida – davriy nashrlarda, radio va televideenie kanallarida, reklama uchun maxsus nashr etiladigan gazetalarda, shuningdek, tashqi reklamada keng yoritilgan” deb yozadi [Soltanbekova G‘.Ø. 1:138].

Qozoq tilidagi reklamaning ayrim ilmiy-nazariy masalalari qator olimlarning ilmiy maqolalarida ham tadqiqot ob’ektiga aylangan.

Qozoq tilida yaratilgan reklama matnlarini tadqiq qilgan S.Misyachenko va Y.Sabiyevalar ularda qozoq milliy madaniyati ham aks etishini ta’kidlaydilar [Misyachenko S., Sabieva E.3:56]. Masalan:

Jog‘arı sapalı yndi shay. «Dastarxon». (Yuqori sifatli hind choyi. «Dasturxon»)

Mazkur reklama matnida qo‘llangan va mahsulot nomini bildiruvchi «Dastarxon» va *shay* kabi so‘zlar qozoq xalqining mehmondo‘stligiga ishora qiladi. Qozoq xalq og‘zaki ijodidagi *Qonaqkelse, qytkeler* (*Mehmon kelsa, qut kelar*); *Qyttyqonaqqa* – *tattitamaq* (*Qutlug‘ mehmonga totli taom*); *Qonaqtysəzbentoyg‘ ызаалтасың* (*Mehmonni so‘z bilan to‘ydira olmaysan*) kabi maqollar ham fikrimizni dalillaydi.

Qozoq tilida yaratilgan reklama matnlarida ham o‘zbek va turk tilida bo‘lganidek, asosan, sodda gaplardan foydalaniladi. Reklama qilinayotgan mahsulot va xizmat nomlari atov gaplar shaklida reklama matniga kiritiladi. Masalan:

Jaṇalıqtardan ləzzat alıñız. Taṇgajayır nəzik. Nestle. (Yangilikdan rohat oling, ajablanarli darajada nozik. Nestle).

Nestle shokoladining qozoq tilidagi bu reklamasi uchta sodda gapdan tuzilgan bo‘lib, ulardan birinchisi buyruq gap (*Jaṇalıqtardan ləzzat alıñız*), ikkinchi (*Taṇgajayır nəzik*) va uchinchi (*Nestle*) gaplar darak gap sifatida shakllantirilgan. Reklama matnida iste’molchilar qiziqishini orttirish maqsadida *ləzzat, nəzik, jaṇalıqtardan, taṇgajayır* kabi ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan yoki tinglovchilarning diqqatini jalg qiluvchi so‘zlardan foydalanilgan. Boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi qozoq tilidagi reklama matnlarida ham fe’l turkumiga mansub so‘zlarning miqdori ot turkumiga oid so‘zlardan keyingi o‘rinda turadi. Turkiy tillarda kesimlarning ko‘proq fe’llar bilan ifodalanishi bilan bu holatni izohlash mumkin bo‘ladi. Keltirilgan reklama matnida ham bu turkumga oid so‘z qo‘llangan (*ləzzat alıñız*). Reklama qilinayotgan mahsulot nomi (*Nestle*) atov gap shaklida alohida berilgan. Bu esa uning alohida ohang bilan talaffuz qilinishini ta’minlagan.

Qozoq reklama matnlarida ham belgi va xususiyatlarni bo‘rttirish, mahsulotning boshqalariga nisbatan sifatliroq ekanligini ko‘rsatish maqsadida «*shynauy*», *nag‘ız*(“*haqiqiy*”, “*asl*”), «*en jaqsayı*»(“*eng yaxshi*”), «*taza*»(“*sof*”), «*sýykimdi*»(“*yoqimli*”), «*keremet*»(“*ajoyib*”), «*ынг‘aylı*» (“*qulay*”)kabi sifat

turkumiga mansub so‘zlar va ularning orttirma va qiyosiy darajalaridan foydalaniladi. Masalan:

Nag‘yiz g‘ajayyipəzihе say irg‘aq ash! Coca cola! (Sizga mos keladigan haqiqiy mo‘jizani kashf eting! Coca cola!)

Bu reklama matnida ham *nag‘yiz(haqiqiy),say (mos), g‘ajayyip (ajoyib, mo‘jiza)* so‘zları aynan shu maqsadlar bilanqo‘llangan. Reklama matnidagi birinchi gap (*Nag‘yiz g‘ajayyip өзиҳе say irg‘aq ash!*) ifoda maqsadiga ko‘ra buyruq gap hisoblansa-da, unda ikkinchi shaxsga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat, tavsiya, taklif mazmuni bayon qilingan. Buyruq gaplar uchinchi shaxs shaklida bo‘lganda, aksariyat hollarda, ikkinchi shaxs vositasida buyruqni, ba‘zan istakni ifodalashi mumkin. Bunda fe’l tarkibida qo‘llangan buyruq-istik maylining qo‘llanishi muhim. “Buyruq-istik mayli harakat-holatning kelasi zamonda bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi buyruq, iltimos, maslahat ma’nosini ifodalaydi. Uning qo‘sishimchasi buyruq-istik bilan birga shaxs va sonni ham ko‘rsatib ketaveradi” [Mengliyev B.R, 4:173]. Bu holatni quyidagi reklama matnida ham ko‘rshimiz mumkin:

Erqashan aqshaq bolsын! Nesie kartасы – 15 minutta.Kaspi bank. (Har doim pul bo‘lsin! Kredit karta - 15 daqiqada. Kaspi bank).

Reklama matnining birinchi gapi buyruq gap sifatifa shakllantirilgan. Unda uchinchi shaxs vositasida niyat qilinayotgan holatga (hammada pul bo‘lishi) erishish uchun reklama qilinayotgan bank xizmatlari mavjud ekanligini ta’kidlash reklamaning maqsadi hisoblanadi. Ikkinchi gap qolgan bo‘laklarning (to‘ldiruvchi, kesim, hol) mazmuni nutq vaziyatidan ma’lum bo‘lganligi uchun to‘liqsiz gap sifatida shakllantirilgan. Tashkilot nomi esa, ta’kidlab talaffuz qilinish uchun atov gap sifatida shakllantirilgan. Ta’kidlash muhim bo‘lmaganida u ikkinchi gap tarkibiga hol sifatida kiritilishi mumkin edi.

Qozoq tilida reklama matnlari foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lmagan, salbiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan narsa, xususiyatlarni inkor qilish asosiga yaratilishi ham mumkin. Masalan:

Qayizg‘aqqa jol joq. Slear. (Qazg‘oqqa yo‘l yo‘q. Clear);

Domestos mikrobtын бәрин birden өltiredi.(Domestos barcha mikroblarni o‘ldiradi).

Bu reklama matnlarining birinchisida (*Qayizg‘aqqa jol joq*) insonda mavjudligi salbiy baholanadigan narsa (*qazg‘oq*) to‘g‘ridan to‘g‘ri inkor qilingan bo‘lsa, ikkinchisida (*Domestos mikrobtын бәрин birden өltiredi*) inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan mikroblarni reklama qilinayotgan vosita butunlay yo‘qotishi ta’kidlangan.

Qozoq tilidagi reklama matnlari tahlili ularning, boshqa turkiy tillarda bo‘lganligi kabi, asosan, sodda gaplar vositasida yaratilishini ko‘rsatdi. Sodda gaplar ma’lumotlarning tez yetkazilishi, diqqatni oson jalb qilishi bilan ajralib turadi. Darak va so‘roq gaplarga ko‘proq murojaat qilinsa-da, o‘rni bilan so‘roq gaplardan ham foydalilanadi. Bunda sof so‘roq gaplar ham, ritorik so‘roq gaplar ham qo‘llanishi mumkin. Ritorik so‘roq gaplar jarangdorlikni oshirishda qo‘l kelsa, sof so‘roq gaplar tafsilotlarni aniqlashtirish lozim bo‘lgan o‘rinlarda muhim hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Soltanbekova G‘.Ә. Qazaq jarnamalarы: tildik sipatы және ықпал etu қызмети: filol. g‘ыл. kand. ... dis. – Almatы, 2001. – 138 b.
2. Soltanbekova G‘.Ә. Qazaq jarnamalarы: tildik sipatы және ықпал etu қызмети: filol. g‘ыл. kand. ... dis. – Almatы, 2001. – 138 b.
3. Misyachenko S., Sabieva E., Reklamniy tekst kak otrajenie kazaxskoy kultury // Filologicheskiy aspekt, Metodika prepodovaniyaazyka i literatury, №4, 2019.
4. Mengliyev B.R., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma, - Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. – B. 173. (- 222 b.)